

O'zbekiston yetakchisini tantanali kutib olish marosimi bo'lib o'tdi



Bugun, 27-yanvar kuni Bishkekdag'i "Ala-Archa" qarorgohida davlat tashrifi bilan Qirg'izistonda bo'lib turgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentini rasman kutib olish marosimi bo'ldi.


Oliy martabali mehmon sharafiga faxriy qorovul saf tortdi. Ikki mamlakatning davlat madhiyalari yangradi.

Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Sadir Japarov faxriy qorovul safi oldidan o'tib, rasmiy delegatsiyalar a'zolarini bir-biriga tanishtirdilar. Birgalikda suratga tushildi.

Ayni daqiqalarda davlat rahbarlarining tor doiradagi muzokaralari o'tmoqda.







Manba